O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JIZZAX VILOYATI HOKIMINING QARORI

2024 - yil 31 - yanvar 61-3-0-Q/24 Jizzax viloyati hokimligi

Jizzax viloyatida Davlat mulkidan foydalanganlik uchun 2024-yilda ijara to‘lovining eng kam stavkalari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrdagi 660-son “Davlat mulkini ijaraga berish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori va ushbu qaror bilan tasdiqlangan Nizom ijrosini ta’minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2023-yil 31-dekabrdagi 01/25-18/1119-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligining 2023-yil 31-dekabrdagi 25/4-2-son bilan ro‘yxatga olinib, birgalikda kelishilgan davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovi bo‘yicha eng kam stavkalarining hisob-kitoblarini inobatga olgan holda, viloyatdagi davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2024-yilda qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y. 9-son, 320-modda) 6-moddasiga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2023-yil 31-dekabrdagi 01/25-18/1119-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligining 2023-yil 31-dekabrdagi 25/4-2-son bilan ro‘yxatga olinib, birgalikda kelishilgan davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovi bo‘yicha eng kam stavkalarining hisob-kitoblari inobatga olinsin.

2. Jizzax viloyatida Davlat ko‘chmas mulkidan 2024-yilda foydalanganlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalari 1-ilovaga va ijara to‘lovi stavkalariga qo‘llaniladigan oshiruvchi koeffitsiyentlar
2-ilovaga, bino va inshootlarga biriktirilgan, shuningdek alohida ajratilgan maydonlarda (asfaltlangan yoki betonlashtirilgan hududlarda) radio, uyali va peydjing aloqa antenalari o‘rnatilganda foydalaniladigan maydon uchun ijara haqi to‘lovlari hisoblanishi tartibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Davlat mulkini balansda saqlovchilarning mansabdor shaxslari:

yil choragida kamida bir marta o‘zining tasarrufida bo‘lgan davlat mulkini xatlovdan o‘tkazishlari;

foydalanilmayotgan davlat mulki to‘g‘risidagi ma’lumotlarning markazga o‘z vaqtida, to‘liq, shuningdek ijaraga berilayotgan mol-mulkning tiklanish qiymati to‘g‘risidagi taqdim etilgan axborotning ishonchliligi;

davlat mulkini ijara shartnomasi tuzmasdan ijaraga berish, ijara shartnomasida ijaraga berilgan mulkning parametrlari va sonini ataylab noto‘g‘ri qayd etilganligi, buning natijasida ijara to‘lovining yashirilishiga olib kelganligi uchun bevosita qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi Jizzax viloyat hududiy boshqarmasi boshlig‘i (Xalikov)ga:

davlat mulkini ijaraga berishni tashkil etish va ijaraga berish;

ijaraga berilayotgan davlat mulkini va uni ijaraga berishdan tushadigan mablag‘larni hisobga olish va monitoringini olib borish;

ijaraga beriladigan davlat mulki bo'yicha ma’lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish;

ijara obyektlaridan maqsadli foydalanilishini va ularning saqlanishini, shuningdek ijara to‘lovi o‘z vaqtida va to‘liq to‘lanishini nazorat qilish;

ijaraga berilgan davlat mulkini har choraklik asosda xatlovdan o‘tkazish;

foydalanilmayotgan davlat mulki ijaraga berilishi to‘g‘risidagi e’lonlarni va ijaraga berilayotgan davlat mulki ro‘yxatini davriy nashrlarida hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va Savdo-sanoat palatasining veb-saytlarida joylashtirish;

viloyat hududida foydalanilmayotgan, bo‘sh turgan binolar va inshootlarni aniqlab, samarali foydalanilishini ta’minlash maqsadida yuridik va jismoniy shaxslarga belgilangan tartibda ijaraga berish vazifalari yuklatilsin.

5. Viloyat Davlat soliq boshqarmasi (Tashpo‘latov), shahar va tuman hokimliklari, hududlarda ijara munosabatlarini tartibga solish, ijaraga berilayotgan davlat mulkini hisobotini to‘g‘ri yuritish va byudjetga qo‘shimcha mablag‘larni jalb qilish maqsadida davlat mulkini balansda saqlovchilar tomonidan ijaraga berish samaradorligini oshirish va tashkillashtirishda

O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi Jizzax viloyat hududiy boshqarmasi bilan o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘ysinlar.

6. Belgilansinki, viloyat hududiy boshqarma, shahar va tuman hokimliklari:

- tasarrufidagi va quyi tuzim tashkilotlari tasarrufidagi davlat mulkini xatlovdan o‘tkazilishi va foydalanilmasdan bo‘sh turgan va/yoki maqsadsiz, samarasiz foydalanilayotgan davlat mulki (qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan, umumiy foydalanishda bo‘lmagan balansdagi

yerlar) haqida har chorak yakuni bilan hisobot oyidan keyingi oyning 10-sanasigacha bo‘lgan muddatda mulkning joylashgan joyi, miqdori, tarkibi va boshqa umumiy tavsiflari ko‘rsatilgan ma’lumotlarni;

- quyi tizimlari tomonidan ma’lumotlarni to‘liq va o‘z vaqtida Markazning Jizzax viloyati hududiy boshqarmasiga belgilangan tartib va muddatlarda taqdim etilishi ustidan idoraviy nazoratni ta’minlasin.

7. Kadastr agentligining Jizzax viloyati boshqarmasi (Sidikov):

- joriy yil 1-fevral sanasiga qadar Markazning Jizzax viloyati hududiy boshqarmasiga viloyat hududida mavjud davlat mulki obyektlarining yig‘ma kadastr hujjatlarini elektron holatda taqdim etsin;

- doimiy ravishda har chorak yakuni bilan keyingi oyning 5-sanasiga qadar mavjud davlat mulki ob’ektlaridan yig‘ma kadastr hujjatlariga o‘zgartirish (yangilangan) kiritilganlari to‘g‘risidagi hujjatlarini elektron holatda taqdim etib borsin.

8. Viloyat hududida 2024-yilda davlat mulki bo‘lgan bino va xonalarda joylashgan byudjet tashkilotlari uchun ijara to‘lovining nol stavkasi belgilansin.

9. Jizzax viloyati hokimining 2023-yil 19-yanvardagi “Jizzax viloyatida Davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2023 yilda ijara to‘lovining eng kam stavkalari to‘g‘risida”gi 23-3-0-Q/23-sonli qarori mazkur qaror rasman e’lon qilingandan boshlab o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur qaror “Jizzax haqiqati” va “Djizakskaya pravda” gazetalarida rasman e‘lon qilinsin hamda viloyat hokimligining jizzax.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

11. Mazkur qaror rasman nashrlarda e‘lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

12. Ushbu qaror ijrosining bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Mustanov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi **E.Saliyev**

Jizzax viloyat hokimining
2024-yil 31-yanvardagi
61-3-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Jizzax viloyat hududida joylashgan davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2024 yilda 1 kv.metr uchun qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalari (iqtisodiy sohalar va tarmoqlar bo‘yicha)

№	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	2024-yilda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to‘lovi stavkalari (QQS bilan birga)	2024-yilda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to‘lovi stavkalari (QQS bilan birga)
	Ishlab chiqarish	**Jizzax shahar**	**Tumanlar**
1	Yoqilg‘i ishlab chiqarish	13 800	9 740
2	Kimyoviy ishlab chiqarish (o‘g‘it mahsulotlari)	13 800	9 740
3	Neft-kimyo sanoati	13 800	9 740
4	Mashinasozlik va asbobsozlik sanoati	13 800	9 740
5	Hisoblash texnikalarini ishlab chiqarish	13 800	9 740
6	Traktorsozlik va qishloq xo‘jaligi mashinasozligi	11 250	8 060
7	Engil va oziq-ovqat sanoati mashinasozligi hamda maishiy anjomlar sanoati	13 800	8 060
8	Sanitariya va gaz uskunalari va mahsulotlarini ishlab chiqarish	13 800	9 740

9	Metal konstruksiyalar va mahsulotlar sanoati	13 800	9 740
10	Mashina va uskunalarni ta’mirlash	13 800	9 740
11	Mashinasozlikning boshqa tarmoqlari	13 800	9 740
12	Ichimliklar ishlab chiqarish	13 800	9 740
13	Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	13 800	9 740
14	Asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	13 800	9 740
15	Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	43 730	31 690
Qurilish sanoati			
16	Qurilish, yo‘l va kommunal muhandislik	11 250	8 060
17	Deraza, eshiklar va mebel ishlab chiqarish sanoati (yog‘ochdan)	41 640	29 790
18	Deraza, eshik va mebellar ishlab chiqarish (plastik, alyumin va MDFdan)	73 080	41 770
19	Loyiha, loyiha-qidiruv tashkilotlari	13 800	9 740
20	Shlakoblok ishlab chiqarish	13 450	9740
21	Polietilen mahsulotlari ishlab chiqarish	43 730	31 690
22	Boshqa qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish	30 970	22 450
O‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog‘oz sanoati			
23	Yog‘och mahsulotlarini tayyorlash sanoati	13 800	9 740
24	Yog‘ochni qayta ishlash sanoati	13 800	9 740

25	Sellyuloza-qog‘oz mahsulotlari sanoati	13 800	9 740
Engil sanoat			
26	To‘qimachilik sanoati	13 800	9 740
27	Tikuvchilik sanoati	13 800	9 740
28	Charm, mo‘yna va poyabzal mahsulotlari sanoati	13 800	9 740
29	Engil sanoatning boshqa ishlab chiqarish turlari	13 800	9 740
Oziq-ovqat sanoati			
30	Oziq-ovqat sanoati (baliq, go‘sht, yog‘-pishloq va sut mahsulotlari ishlab chiqarishdan tashqari)	13 800	9 740
31	Go‘sht mahsulotlari sanoati	13 800	9 740
32	Sut mahsulotlari sanoati	27 020	19 480
33	Baliq mahsulotlari sanoati	13 800	9 740
34	Tegirmonchilik sanoati	13 800	9 740
35	Kombikorm (omuxta yem) sanoati	11 250	8 060
36	Qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarish	13 800	9 740
37	Oziq-ovqat sanoatining boshqa tarmoqlari	13 800	9 740
Sanoatning boshqa tarmoqlari			
38	Tibbiyot sanoati	13 800	9 740
39	Poligrafiya sanoati	33 870	28 000

40	Kiyimlarni va gazlamalardan tayyorlangan buyumlarni kimyoviy tozalash, bo‘yash, yuvish va matolarni qayta ishlash	16 930	11 870
Qishloq xo‘jaligi			
41	O‘simlikshunoslik 1 gektar yer maydoni uchun	5 565 680	3 986 190
42	Issiqxona xo‘jaligi	10 440	8 960
43	Chorvachilik va parrandachilik	6 610	4 810
44	Baliqchilik (shu jumladan sun’iy maydon) 1 gektar uchun	5 565 680	3 986 190
45	Asalarichilik 1 gektar yer maydoni uchun	3 618 040	2 591 230
46	Veterinariya xizmatlari	13 800	9 740
47	Qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tashkilotlar	13 800	9 740
48	O‘rmon xo‘jaligi (shu jumladan bog‘lar) 1 gektar yer maydoni uchun	5 565 680	3 986 190
Transport va aloqa			
49	Transport infratuzilmalari (avtopark, taksopark, avtomobil to‘xtash joylari va garaj)	13 800	9 740
50	Transport infratuzilmalari (jarima maydonlari)	3 480	2 680
51	Avtomobillarni yuvish	44 660	28 110
52	Avtomobillarga yoqilg‘i quyish (benzin, dizel)	44 660	36 280
53	Avtomobillarga yoqilg‘i quyish (gaz qo‘yish shaxobchalari)	54 280	39 310
54	Elektromobillarni quvvatlash shahobchasi	23 660	17 136

55	Aholi buyurtmasiga asosan yuk tashish va boshqa transport-ekspeditsiya xizmatlari	25 080	18 140
56	Pochta aloqasi	13 800	9 744
57	Kurerlik aloqasi	27 840	19 820
58	Elektr-simli aloqa	27 840	19 820
59	Radio, uyali aloqa va peydjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida)	116 920	83 770
Savdo va umumiy ovqatlanish			
60	Ulgurji savdo	38 970	28 000
61	Mahsulotlarni (xizmatlarni) qismlab savdo faoliyatini amalga oshiruvchi ulgurji savdo bozorlaridagi savdo do‘konlari	100 100	71 560
62	Chakana savdo	38 970	28 000
63	Umumiy ovqatlanish	38 970	28 000
64	Madaniy meros ob’ektlar bino va inshootlarida joylashgan savdo do‘konlari	61 010	43 790
65	Madaniy meros ob’ektlari bino va inshootlarida joylashgan umumiy ovqatlanish shoxobchalari	53 470	38 300
66	Suv havzalari (suv omborlari) hamda daryo bo‘ylarida baliq mahsulotlari, shu jumladan, baliq taomlari savdosi, umumiy ovqatlanishni tashkil etish*	38 970	28 000
67	Yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash va sotish (fast fud)	61 010	40 430
68	Kitob do‘konlari	5 450	4 030
69	Lombardlar	50 340	36 060

Xizmat ko‘rsatish			
70	Madaniy-maishiy maqsadlardagi hamda xo‘jalik buyumlarini ijaraga berish joylari	38 970	28 000
71	Internet va kompyuter tarmoqlari orqali xizmatlar ko‘rsatish (nusxa ko‘chirish xizmati)	38 970	28 000
72	Kompyuter o‘yinlarini tashkil etish	58 460	42 000
73	Ko‘chmas mulklar bilan bog‘liq munosabatlar	38 970	28 000
74	Reklama, ko‘rgazmalar xizmatlari	38 970	28 000
75	Geologiya va tabiiy boyliklarni qidirish, geodeziya va gidrometeorologiya xizmatlari	69 600	49 616
76	Mehmonxona ho‘jaligi	44 540	31 800
77	Umumiy yashash joylari	34 680	24 300
78	Maishiy xizmatning noishlab chiqarish turlari	22 410	15 970
79	Sartaroshxona, fotosalon, modalar atelesi, poyabzallarni ta’mirlash ustaxonasi	33 520	24 300
80	Hammomlar	67 040	47 930
81	Saunalar va basseynlar	133 630	95 760
82	Paxta (ilgari iste’molda bo‘lgan) va jun tozalash hamda titish xizmatlari	22 380	15 900
Sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta’minot			
83	Sog‘liqni saqlash	27 840	19 820
84	Tibbiy diagnostika xizmati (shu jumladan laboratoriya)	51 270	37 180

85	Sayyohlik va dam olishni tashkil etish	27 840	19 820
86	Fitobar	19 250	13 770
87	Madaniy ko‘ngilochar markazlar (bilyard, o‘yin avtomatlari, diskoteka va boshqalar)	44 540	31 800
88	Suv bo‘yida plyaj zonalarini tashkil etish*	27 840	19 820
89	Baliq ovlash maskanlari*	27 840	19 820
90	Qayiqda suzish va suv sayohati bo‘yicha boshqa xizmarlar ko'rsatish*	27 840	19 820
91	Suv havzalari (suv omborlari) hamda daryo bo‘ylarida turizm xizmatlarini tashkil etish*	27 840	19 820
92	Jismoniy tarbiya va sport	13 800	9 740
93	Dorixonalar	22 380	15 900
94	Optika, tibbiyot anjomlari va jihozlar savdo do‘konlari	46 860	25 200
95	Ijtimoiy-dorixonalar	19 830	12 880
Ta’lim			
96	Oliy va o‘rta-maxsus ta’limi ma’lumotli kadrlarni tayyorlash	22 410	15 900
97	O‘quv kurslarini tashkil etish (IT-kurslari)	45 930	33 260
98	Ishchilar va xizmatchilarni tayyorlash va malakasini oshirish	17 470	13 000
99	Bolalar umumta’lim maktablari (nodavlat ta’lim muassasalari uchun)	11 250	8 110
100	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida umumiy ovqatlanish	27 140	19 600
101	Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida umumiy ovqatlanish	13 800	9 740

102	Maktabgacha tarbiya muassasalari (nodavlat ta’lim muassasalari uchun)	9 860	7 390
103	Madaniyat va san’at	38 970	28 000
104	Ko‘rgazmalar	30 040	22 510
105	Madaniyat va dam olish bog‘lari	27 840	19 820
106	Botanika bog‘lari va zooparklar	27 840	19 820
107	Televideniyalar va radioeshittirishlar redaksiyalari	27 840	19 820
108	Kinostudiyalar, ovoz yozish studiyalari	44 540	31 810
109	Fan va ilmiy xizmatlar ko‘rsatish	16 930	11 870
110	Avtomaktablar	24 700	14 110
Moliya-kredit faoliyati			
111	Moliya, kredit va pensiya ta’minoti (sug‘urtalash va auditorlik faoliyatidan tashqari)	38 970	28 000
112	Auditorlik faoliyati	38 970	26 200
113	Marketing tadqiqotlari, tijorat, moliya va boshqaruv faoliyatlari bo‘yicha maslahatxonalar	38 970	28 000
114	Bank faoliyati	38 970	28 000
Faoliyatning boshqa turlari			
115	Sug‘urta va notarial xizmatlar	38 970	28 000
116	Sud va yuridik xizmat muassasalari	33 520	24 300
117	Advokatlar kollegiyasi va yuridik maslahatxonalar	33 520	24 300

118	Jamoatchilik birlashmalari	11 250	7 840
119	Omborxonalar	38 970	28 000
120	Davlat tashkilotlariga ofis	16 930	11 870
121	Xususiy tashkilotlarga ofis	61 010	43 790
122	Arxiv xizmati	16 930	9 960
123	Tahririyat va nashriyotlar	22 380	15 900
124	Metallolom va ikkilamchi qog‘oz (latta) mahsulotlarini to‘plash joylari	22 380	15 900
125	Turar joy-kommunal xo‘jaliklari	22 380	15 900
126	Yengil avtomashinalar va boshqa turdagi transport vositalarini ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish	44 540	31 800
127	Vulkanizatsiya, payvandlash, chilangarlik ishlarining barcha turlari	33 870	24 520
128	Laboratoriyalar	27 840	19 820
129	Turli xizmat turlari to‘lovlari (paynet)	111 820	79 960
130	Hunarmandchilik turlari bo‘yicha (yodgorlik majmualari yasash, misgarlik, o‘ymakorlik, rassomchilik, do‘ppido‘zlik, telpak, cho‘girma, chopon va x.k)	32 940	23 850
131	Avia kassalar (shu jumladan temir yo‘l, avtotransport va boshqalar)	61 010	43 790
132	Bankomatlar	557 720	399 390
133	Non-bulka mahsulotlari ishlab chiqarish	38 970	24 300

Izoh: Davlat mulkini ijaraga berishda imtiyozlar va preferensiyalar qo‘llanishi qonunchilikda belgilangan tartiblarda amalga oshirilishi mumkin.

* O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.09.2023-yildagi “Davlatga tegishli suv havzalarini tadbirkorlik subyektlariga “E-auksion” elektron savdo platformasi orqali ijaraga berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 441-son qaroriga asosan qo'shilgan faoliyat turlari.

Jizzax viloyat hokimining
2024-yil 31-yanvardagi
61-3-0-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Ijara to‘lovi stavkalariga qo‘llaniladigan oshiruvchi koefitsentlar

1-Hududiy zonalar koeffitsenti

Guruhlar	Shahar va tumanlar nomi	Zonalar	Hududiy zonalar koeffitsienti
1.	Jizzax shahri	1	2,4
2.	G‘allaorol tumani	2	2,2
3.	Do‘stlik, Zafarobod, Zarbdor, Zomin, Mirzacho‘l, Paxtakor, Forish, Sharof Rashidov tumanlari	3	2,0
4.	Baxmal, Yangiobod tumanlari	4	1,8
5.	Arnasoy tumani	5	1,6

2-Qurilish turi bo‘yicha koeffitsenti (Kq):

- alohida turgan bino – 1,2;
- binoning ichki qismida joylashagan va taqab qurilgan – 0,8;
- binoning yuqori qismida (cherdak, boloxona) – 0,5;
- yerto‘la (yarim yerto‘la) – 0,5;
- betonlashtirilgan (asfaltlangan) inshootlar – 0,5

3-Tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsenti (Kh):

- yer maydoni va binoning ichki o‘tish yo‘laklari mavjud bo‘lganda – 0,6.

4-Tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsenti (Ko):

- asosiy avtotransport yo‘llari bo‘ylab joylashganda – 0,8;
- ikkinchi darajali avtotransport yo‘llari bo‘ylab joylashganda – 0,7;

Binolar va inshootlar bo‘yicha ijara to‘lovini hisoblab chiqish quydagi tarzda

aniqlanadi:

Ts = Es * Kz * (Kq+Kh+Ko).

bunda:

Ts – bir yilga bir kv.metr uchun ijara to‘lovi tayanch stavkasi.

Es – bir yilga bir kv.metr uchun eng kam stavka.

Jizzax viloyat hokimining
2024-yil 31-yanvardagi
61-3-0-Q/24-son qaroriga
3-ilova

Radio, uyali va peydjing aloqa antennalari (texnik uskunalar) o‘rnatilganda foydalaniladigan maydon uchun ijara haqi to‘lovlari hisoblanishi tartibi

1 - Bino va inshootlarning yuqori qismi, cherdak, boloxona (shuningdek davlat mulki bo‘lgan inshootlarning yuqori qismi) qismlarida o‘rtatilganda:

Ts = Es * Kz * (Kq+Kh+Ko).

Ts – bir yilga bir kv.metr uchun ijara to‘lovi tayanch stavkasi.

Es – bir yilga bir kv.metr uchun eng kam stavka.

Kz - hududiy zona koeffitsienti.

Kq – 0,5

Kh – 0

Ko – 0,8

2 - Bino va inshootlarga biriktirilgan shuningdek alohida ajratilgan maydonlarga o‘rnatilganda:

Ts = Es * Kz * (Kq+Kh+Ko).

Ts – bir yilga bir kv.metr uchun ijara to‘lovi tayanch stavkasi.

Es – bir yilga bir kv.metr uchun eng kam stavka. (umumiy ijara maydoni tortqich qoziqlarning umumiy perimetri bo‘yicha hisoblanadi.)

Kz - hududiy zona koeffitsienti.

Kq – 0

Kh – 0,6

Ko – 0,8

3 - Bino va inshootlarning ichki qismida joylashagan xonalarga texnik uskunalari o‘rnatilganda:

Ts = Es * Kz * (Kq+Kh+Ko).

Ts – bir yilga bir kv.metr uchun ijara to‘lovi tayanch stavkasi.

Es – bir yilga bir kv.metr uchun eng kam stavka.

Kz - hududiy zona koeffitsienti.

Kq – 0,8

Kh – 0,6

Ko – 0,8